

BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH

Abdulaxatova Odina Abduzunnun qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat huquqiy faoliyati fakulteti 1-kurs A-patok 1-guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bola huquqlari haqidagi g'oyalarning shakllanishi hamda rivojlanishi, ularning huquqlarini qonunchilikda himoya qilinishi, yuridik asoslarda bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilinishi, bola huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot va organlar va hozirgi kunda bola huquqlari bo'yicha xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Bola, bola huquqlari, BMT, Konvensiya, Konsepsiya, Unicef, Ombudsman, Konstitutsiya.

Kirish Inson huquqlari bu – har bir shaxsning ajralmas huquq va erkinliklari hisoblanadi yani inson tug'lishidan to vafot etguniga qadar bu huquq va erkinliklar unga butun umri davomida hamrohlik qiladi. Bu huquqlar universal huquqlar hisoblanib yani har bir shaxsning millati, irqi, jinsi, tili, dini, etnik kelib chiqishi rangidan qat'i nazar hech qanday kamsitishlarsiz va bunga yo'l qo'ymagan holda barcha uchun muhim va xos bo'lgan huquq va erkinlardir. Bu huquq va erkinliklar insonning yashash huquqi kabi asosiy va eng muhim bo'lgan huquqlaridan tortib, ta'lim olish, mehnat qilish, kabi huquq va erkinliklarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Xuddi shu kabi bola huquqlari ham inson huquqlarining bir qismi hisoblanadi yani bola huquqlari tushunchasi deganda biz inson huquqlarining bolaga nisbatan ishlatilishini tushunamiz.

Bola huquqlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, jamiyatning ijtimoiy o'z qatlami hisoblanmish – bolalarga talluqli huquq va erkinliklar, ularning qonuniy manfaatlari tarixi, inson huquqlari tarixi bilan bevosita chambarchas bog'liq ravishda o'rganish maqsadga muvofiq ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Zero, bola huquqlari inson huquqlarining tarkibiy qismidir. Inson hayotini, uning katta kishi yoki bola ekanligidan qat'i nazar, o'z mohiyatini tashkil etgan huquq va erkinliklardan xoli tasavvur etib bo'lmaganligi sababli, bola ham, kattalardan kam bo'lmagan darajada, o'z huquq va erkinliklari e'tirof etilishiga muhtoj bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bola huquqlari asrlar davomida bunday alohida e'tirofdan mahrum bo'lib kelgan. Uning yashashga bo'lgan huquqlari insoniyat tarixida eng qadimiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Tarixda bolalar noqonuniy tug'ilgan, nikohsiz tug'ilgan, yashirin ravishda tug'ilgan, nogiron yoki kasal tug'ilgan yoki bolaning otasi yoxud onasi no'malum,

degan vajlar bilan bunday toifadagi bolalarga nisbatan hurmatsizlik qilingan, bolalar tahqirlangan yoki jismonan yo'q qilib ham yuborilgan. Qadimgi Spartada nogiron tug'ilgan bolalarni tiriklayin o'limga mahkum etilgani, shuningdek Qur'oni Karim nozil qilinguniga qadar qiz bolalarni dunyoga kelishi fojia sanalgani tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo, insoniyat rivojlanib borishi bilan bir qatorda, kishilik jamiyati yanada madaniylashib, bolalarga, ularning huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor ijobiy tomonga o'zgarib borgan. Bola huquqlari o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. "Huquq" va "majburiyat" tushunchalari davlatlar tashkil topa boshlagan jamiyat paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan inson hayotidan ham mustahkam o'rin ola boshladi. Albatta, bu masalada, qadimgi yunon faylasuflarining xizmatlari kattadir. Ular asarlarida inson huquqlarini qadimgi ko'rinishlari va tushunchalarini keltirgan holda, bolalarning huquq va erkinliklari cheklanganligini e'tirof etishadi. Bolalarning voyaga yetmaganligi bilan bog'liq jismonan va aqliy jihatdan yetarli noilojligi inobatga olinmas edi. Bolalar huquqsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, qaramlikning mashaqqatlariga kattalar bilan babbaravar darajada bardosh berishga mahkum etilgan edi. Sitseron "Majburiyatlar haqida" asarida fuqarolarning majburiyatlarini ularning hayotiy zarurligi darajasiga ko'ra bir qancha turlarga ajratadi. Birinchi o'ringa, Vatan va ota-ona oldidagi majburiyatlar qo'yilgan. Bolaga nisbatan majburiyatlar ikkinchi o'rinni olgan. Ammo, bolalar o'zining butkul

huquqsizligi sababli oilada ham, jamiyatda ham, davlatda ham loyiq sharoitlarga ega bo'lishi uchun real imkoniyatlardan mahrum etilgan. IX - XVII asrlarda Qadimgi Rusda bolalarni toifalarga ajratish urf-odat bo'lgan. Ayniqsa, nikohsiz tug'ilgan bolalarga bepisandlik bilan qarash illatga aylanib ketgan. Demak, bola va uning huquqlariga oid qadimgi davrda bildirilgan fikr va tasavvurlar hamda g'oyalar to'g'risida xulosa qilib aytish mumkinki, bolaning oila va jamiyat uchun naqadar aziz ekanligi e'tirof etilsada, ammo, ularning huquq va erkinliklari, ularning huquqning subyekt sifatida ko'rish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, hattoki, qadimgi mutafakkirlarda ham yetarli darajada berilmagan va ularning huquq va erkinliklari ayrim hollarda inkor etib kelingan. Ammo, dinlarda, ayniqsa islom dinida bu masala har tomonlama, chuqur o'ylangan holda tartibga solingan va ularning huquq va erkinliklarini, oila va jamiyatda tutgan o'rni va roliga alohida ahamiyat qaratilgan. Bola huquqlari - har bir bola (18 yoshga to'lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashsiz ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi. Bola huquqlarining ta'rifi mantiqan inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy g'oyalaridan kelib chiqadi. Uning alohida moddasi bolalarga bag'ishlangan.

Inson huquqlari bo'yicha dastlabki normativ hujjatlar to'g'risida fikr yuritilganda, odatda Angilyadagi 1215-yilda qabul qilingan "Erkinliklarning buyuk xartiyasi" bilan boshlangan Uyg'onish davri ko'rsatiladi. Albatta, mazkur davrdan boshlab odatda, inson huquqlari masalasi normativ shaklda shakllana boshladi. Chunki insonning "oliy qadriyat" sifatida e'tirof etilishi aynan shu davrga borib taqaladi. Asrlar davomida huquqsizlik va kamsitilganlik holatida yashab kelgan insonlar, o'zining dunyoga kelish va shakllanish davridagi "tug'ma huquqlar" ga egaligi g'oyasi ijtimoiy ongda tub o'zgarish hosil qildi. Demak, inson huquqlari, xoh u qiz o'g'il, xoh u qiz bo'lsin, bola huquqlari bilan boshlanadi. Bola huquqlarini inson huquqlari umumiy konsepsiyasidan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas. Buning ustiga, bola huquqlari inson huquqlari konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bola huquqlari konsepsiyasi - mazmunan inson huquqlari to'g'risida konsepsiya, lekin hali ulg'aymagan inson - shu sababli o'z huquqlari va erkinliklarini kuchliroq himoya qilinishiga ayniqsa muhtoj inson to'g'risida konsepsiyadir.

XX asrning boshi, ya'ni 1900- yili Chikagoda voyaga yetmaganlarning ishlari yuzasidan ixtisoslashgan sud yaratilishi bilan boshlandi. Buning sababi-bolalarning yosh xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish, ularga nisbatan ehtiyotkor tarbiyaviy choralarni qo'llashga bo'lgan intilish bo'ldi. 1913-yilda Norvegiya, nafaqat nikohdan, balki nikohsiz tug'ilgan bolalar ham huquqlari teng ekanligini qonun yo'li bilan e'tirof etdi. Bolalar huquqlarining normativ shaklda rivojlanishining yana bir shakli, bu bolalarga oid maxsus xalqaro normalarni shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bola huquqlariga oid maxsus dastlabki xalqaro-huquqiy hujjat, Millatlar ligasi tomonidan, 1924-yil 24-sentabrda Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan. Mazkur hujjat 5 ta asosiy prinsipdan tashkil topgan. Shuningdek, 1959-yil 20-noyabrda Bola huquqlari bo'yicha deklaratsiya ham qabul qilingan. Mazkur Deklaratsiyaning qabul qilinganligiga 20 yil to'lishi munosabati bilan BMT tomonidan 1979-yilni "Xalqaro bolalar yili" deb e'lon qilindi va bola huquqlarini hurmatlash va himoya qilish borasidagi yangi xalqaro normalarni ishlab chiqish, bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlab berish, bolalarga nisbatan jinoyatlarning oldini olish va bola huquqlariga oid boshqa barcha masalalarni qamrab oluvchi yangi xalqaro hujjat ishlab chiqish va qabul qilish to'g'risida tashabbuslar va takliflar ilgari surildi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT bosh Assambleyasining 44/25 rezolyutsiyasi bilan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilindi va 1990-yil 26-yanvardan uni imzolash boshlandi. Konvensiya 20 ta davlat hukumatlari tomonidan imzolanganidan so'ng, 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirdi. Qisqa vaqt ichida ko'p mamlakatlar tomonidan ushbu hujjat imzolandi va ratifikatsiya qilindi. Hozrgi kunga kelib, 140 ta davlat mazkur

hujjatni ratifikatsiya qilgan, 193 ta davlat esa, ishtirokchi davlatga aylangan. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganidan beri dunyoda bolalar ahvoriga oid ko'p narsa ijobiy tarafga o'zgardi. Ushbu o'zgarishlar, bolalarni mehnatning xavfli ko'rinishlaridan ozod qilinishiga, ularning maktabda ta'lim olishga keng ko'lamda jalb etilishiga, tibbiy xizmatlarining kengaytirilishiga, rejali ravishda immunlashtirilish kabi qator chora- tadbirlar bilan bog'liq.

Shuningdek O'zbekistonda ham bola huquqlarini himoya qilish borasida ishlab chiqilgan qonunlar hamda normativ hujjatlar mavjud. Jumladan, Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda maqullangan O'zbekiston Respublikasining qonuni. Ushbu qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonundagi bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taminlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini ximoya qilish; bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini taminlash; bola huquqlari kafolotlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishdir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan. Hususan, Konstitutsiyasining 78- moddasidan quyidagicha norma o'rin olgan: "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart- sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi." Shuningdek 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi BMT bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Bu tarixdagi eng ko'p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo'yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo'ylab bolalar hayotining o'zgartirishga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo'shilgan. Konvensiyaga ko'ra, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi- bolalar manfaatlarini ustuvorligini tan olishdir. Har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta'lim, o'yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo'lgan g'amxo'r, mehribon hamda yetarli turmush darajasiga ega bo'lgan oilada o'sish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e'tiborsizlik va zo'ravonlikdan himoyalanih huquqiga ega.

Yuqorida takidlanganidek Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya Nyu-Yorkda 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. Ushbu konventsiya 54 ta moddadan

iborat. Konvensiyaga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya Bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida tavsiflaydi: yashash huquqi (6-modda) oila qurish (9-modda), ta'lim to'g'risida (7-modda) zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida (19-modda), tenglik, fikr va so'z erkinligi to'g'risida (13-modda), tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash (24-modda).

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinishi bilan "Bola huquqlari kafolotlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-sonli qaroriga binoan Ombudsman hozirda o'z o'rinbosariga- bolalar huquqlari bo'yicha vakilga ega.

Bola huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, bolalar va ularning qonuniy vakillari orasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tushuntirish, bola huquqlari bo'yicha vakil faoliyati haqidagi xalqaro hamda milliy normalar qoidalarini targ'ib qilishni olib boradi. Vakil jismoniy va yuridik shaxslarning bola huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi to'g'risidagi murojatlarini ko'rib chiqadi. Bola huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) o'z vakolati doirasida bola huquqlari va erkinliklari xalqaro standartlarini qonun hujjatlariga tatbiq etishni hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini monitoring qiladi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1996-yil 31-oktabrda tuzilgan. Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llabquvvatlash dasturiga muvofiq tashkil etilgan. Davlatga qarashli, tahlil, maslahat, idoralararo va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Asosiy vazifalari: inson huquqlari bo'yicha milliy harakat rejasini ishlab chiqish; shu sohaga oid milliy ma'ruzalar tayyorlash; tegishli o'quv-uslubiy adabiyotlar nashr etish, tadqiqotlar o'tkazish. Markaz huzuridagi jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi va bolalar qabulxonasida bepul yuridik maslahatlar beriladi.

Unicef 1946-yilda BMT tomonidan tashkil etilgan Xalqaro bolalar jamg'armasining (ISEF) vorisi hisoblanadi. 1994-yildan buyon Unicef O'zbekistonda bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilash, eng kam ta'minlangan qatlamlarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha ish olib boradi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ishtirokchilariga aylangan davlatlarning bir qismi mavjud bo'lgan qonunchilik tizimiga o'zgartirish kiritish, uni isloh qilish yo'lidan, bir qismi esa, maxsus qonunlar qabul qilish yo'lidan ketishdi. Masalan, Braziliyaning yangi Konstitutsiyaga bola huquqlariga bag'ishlangan alohida bob kiritildi, Finlandiyada bola haqida maxsus qonun, Norvegiyada bola ishlari bo'yicha vakilni (ombudsman) ta'xis etish to'g'risidagi qonun, Kubada bolalar va voyaga yetmaganlar to'g'risida Kodeks qabul qilindi. Germaniyada bolalarga va yoshlarga yordam ko'rsatish to'g'risida yangi Qonun loyihasi ishlab chiqildi .

Shuningdek Butun dunyo bo'ylab, har yilning 1-iyun kuni "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" sifatida nishonlanadi. Ushbu bayram ko'pchilik davlatlarda "Xalqaro bolalar huquqlarini himoya qilish kuni" sifatida ham e'tirof etiladi.

YUNISEFning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda ta'lim olish imkoniga ega bo'lmagan bolalar soni 258 million nafarni tashkil etadi. Qolaversa, ming-minglab bolalar zo'ravonlik qurboni bo'lmoqda. Ushbu global muammolar bolalarning huquq va manfaatlarini muhofazalash, ularning sifatli ta'lim olishi, sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun ko'plab dolzarb vazifalar jahon hamjamiyati oldida ko'ndalang bo'lib turganidan dalolat beradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishning muhim yo'llaridan biri o'zaro hamkorlik va hamjamiyatlikni kuchaytirish, bola huquqlari muhofazasiga oid ishlarni tizimli yo'lga qo'yishdir. Jumladan, O'zbekistonda ilk bor bolalarning majburiy mehnatiga to'liq barham berishga erishildi. Ushbu natija xalqaro tashkilotlar, xorijiy ekspertlar tomonidan yuksak e'tirof etilib, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat oldidagi mavqeini yuksalishiga sabab bo'ldi. Xususan, "Bola huquqlari bo'yicha vakil to'g'risidagi" qonun loyihasi tayyorlandi. Bolalarning huquqlari va manfaatlarini muhofazalashda Bolalar ombudsmanlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, erishilayotgan natijalar va yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar takidlandi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bolalarning huquqlari avvalambor ularning ota-onalari tomonidan himoya qilinishini kerakligi shuningdek oila a'zolariga oila va uning funksiyalarini bajarilishi haqida saboq berish lozimligini va bola huquqlari monitoringi hamda bolalarning o'zi hamda ularning nomidan taqdim etilayotgan shikoyatlar bilan ishlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini takidlab o'tish o'rinlidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muminov A.R. Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik “Adolat nashriyoti”,2014. – 552-bet.
2. <http://nhrc.uz/oz/menu/bola-huquqlari>
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bolalar_huquqlari
4. ЎРҚ-139-сон 07.01.2008. Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида
5. Bola huquqlari <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/bola-huquqlari>
6. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya <https://advice.uz/oz/document/2675>
7. Bola huquqlari bo‘yicha vakil <https://advice.uz/oz/document/2666>
8. Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz - Vikipediya https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari_bo%CA%BByicha_milliy_markaz
9. Unicef tashkiloti <https://advice.uz/oz/document/2678?keyword=%D0%A2%D0%B0%D1%8A%D0%BB%D0%B8%D0%BC>
10. 1 iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni <https://islomkarimov.uz/uz/news/1-iyunya-mezhdunarodnyj-den-zaschity-detej>
11. . Bola huquqlarini muhofazalashning muhim jihatlari: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot <https://yuz.uz/uz/news/bola-huquqlarini-muhofazalashning-muhim-jihatlari-ozbekiston-tajribasi-va-xalqaro-amaliyot>